



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

QAROR

2025-yil " 9 " 04

8 - son

Toshkent shahri

**Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish
va muhofaza qilish sohasidagi yo'riqnomalar va uslubiy tavsiyalarni
tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Metall foydali qazilmalar zaxiralarini hisoblashga oid materiallarning tarkibi, rasmiylashtirilishi va ularni O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma 1-ilovaga muvofiq;

Nometall foydali qazilmalar zaxiralarini hisoblashga oid materiallarning tarkibi, rasmiylashtirilishi va ularni O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma 2-ilovaga muvofiq;

Mis ma'danli konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma 3-ilovaga;

Temir ma'danli konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma 4-ilovaga;

Ko'mir va yonuvchi slanets konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma 5-ilovaga;

Talk va pirofillit konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma 6-ilovaga;

Marganets ma'danli konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma 7-ilovaga;

Niobiy va tantal ma'dan konlariga zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma 8-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi muassasa va tashkilotlarda geologik kolleksiya materiallarini hisobga olish va saqlash bo'yicha yo'riqnoma 9-ilovaga;

Ma'dan konlarida namuna olishning vakilliligi va ishonchliligini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar 10-ilovaga;

Yer osti shifobaxsh mineral, sanoat va issiqlik-energetika suvlarining ekspluatatsion zaxiralari hamda bashoratli resurslarini hisoblash materiallarining mazmuni, rasmiylashtirilishi va Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim etish tartibi haqidagi yo'riqnoma 11-ilovaga;

Yer osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralari va bashorat resurslari tasnifini shifobaxsh mineral suv konlariga qo'llash bo'yicha yo'riqnoma 12-ilovaga;

Yer osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralari va bashorat resurslari tasnifini issiqlik-energetik suvlari konlariga qo'llash bo'yicha yo'riqnoma 13-ilovaga;

Yer osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralari va bashorat resurslari tasnifini yer osti sanoat suvlari konlariga qo'llash bo'yicha yo'riqnoma 14-ilovaga;

Yer osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralari va bashorat resurslari tasnifini ichimlik va texnik suvlari konlariga qo'llash bo'yicha yo'riqnoma 15-ilovaga;

Neft va gaz uchun bajariladigan geologik-qidiruv ishlarining bosqichlari to'g'risidagi nizom 16-ilovaga;

Neft va yonuvchi gaz konlari zahiralari, istiqbolli hamda bashoratli resurslarining tasnifi 17-ilovaga;

Neft va yonuvchi gaz konlari zahiralari, istiqbolli hamda bashoratli resurslarining tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma 18-ilovaga;

Neft va yonuvchi gaz zahiralari hisoblash materiallarining mazmuni, ularni rasmiylashtirish hamda foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim etish tartibi to'g'risida yo'riqnoma 19-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar 1-band bilan tasdiqlangan yo'riqnoma qoidalariga rioya qilgan holda ishlarni amalga oshirsin.

3. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 31-yanvardagi 2-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari R.Yusupov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B. Islamov